

OLIV VA HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA (KURSANT) LARNING MUSTAQIL TA'LIM Olishini TASHKIL ETISHDAGI MUOMMOLAR, TAKLIF VA YANGI METODIK USULLARINI YARATISH

Safarova Dilbar Baxrilla qizi
Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti



Аннотация: В данной статье говорится о самостоятельном обучении, которое является одним из лучших способов повышения творческого потенциала курсантов (курсантов) в высших учебных заведениях и высших военных учебных заведениях. В статье освещаются современные проблемы в этом направлении и ряд предложений по созданию новых способов организации самостоятельного обучения, а также ряд методических экспериментов, проведенных с этой целью. Кроме того, при разработке учебно-предметной программы в высшей школе, по каким критериям следует определять темы самостоятельных работ, а вместе с созданием инновационных методов обучения, актуальным является подход как к тематическому, так и к методическому подходу к самостоятельным работам. образования будет предпринята попытка открыть спрос дня.

Ключевые слова: Прагматика, мотивация, методологический подход, творческая среда, кейс, результат исследования, критерии, гражданская позиция, профессиональные навыки, теория, практика, компетентность, умение.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim va oliy harbiy muassasalarida talaba (kursant)larning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri bo'lmish mustaqil ta'lim haqida so'z boradi. Maqola mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va mustaqil ta'lim olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida qator taklif va shu maqsadda amalga oshirilgan qator uslubiy tajribalarni misol tariqasida yoritib beradi. Shuningdek oliy ta'limda o'quv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini qanday mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lishi hamda ta'lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuviga bo'lgan bugungi kun talabini ham ochishga xarakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Pragmatik, motivatsiya, uslubiy yondashuvi, ijodiy muhit, kasus, tatqiqot natijasi, mezonlar, fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy mahoratini, nazariya, amaliyot, malaka, ko'nikma.

Annotation: This article talks about independent education, which is one of the best ways to improve the creative potential of students (cadets) in higher education and higher military institutions. The article highlights today's problems in this direction and a number of suggestions for creating new ways of organizing independent education, as well as a number of methodological experiments carried out for this purpose. In addition, in the development of the academic subject science program in higher education, what criteria should be used to determine the topics of independent work, and together with the creation of innovative methods of teaching, today's approach to both thematic and methodological approach to independent education an attempt will be made to open the demand of the day.

Key words: Pragmatic, motivation, methodological approach, creative environment, case study, research result, criteria, citizenship position, professional skills, theory, practice, competence, skill.

Mamlakatimiz aholisining munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida talim olishi hamda kasb egallashi, jamiyatda o'zlarining munosib fuqarolik pozitsiyasini egallashi va bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Buning asosiy tub ma'nosida sog'lom avlodni shakllantirish va ularni munosib ravishda tarbiyalash yotadi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan - O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va

izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat talim standartlarini pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ta'limni oiladan boshlash tamoyili asosida, oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Yo'nalishidan qat'iy nazar ta'lim olayotgan OTM talabasi (kursanti)ning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri bu – mustaqil talim hisoblanadi. Bu usul talabani mavjud ilmiy muammoni shakllantirish ilmiy va amaliy yechim yo'lini ishlab chiqish, yechim bo'yicha optimal natijaga erishish, isbotlash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil talim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil talim olish talabalarni o'quv mashg'ulotida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda namoyon etish, murabbiy ishtirokisiz mustaqil qaror qabul qilishiga o'rgatadi.

Mustaqil ta'limni to'g'ri shakllashtirish har qanday o'quv predmetini o'zlashtirish imkoniyatini oshirishi, qaysidir ma'noda talabani bilim, malaka, ko'nikma olishiga undashi, motivatsiyasini oshirishi lozimdir.

Bugungi kunda talaba shaxsi uchun mustaqil ta'limning o'quv protsessining yuklamasi sifatida belgilanib qolganligi, mustaqil talim mavzularini to'g'ridan-to'g'ri fan dasturidagi mavzular bilan bir xilligi, mustaqil ish mavzusining ma'lum bir muammoga yo'naltirilmaganligi balki aksariyat hollarda turli manbaalardan olinadigan tayyor materiallar orqali yoritilishi hamda mustaqil ishni amaliyotda tatbiq qilmaslik kabi holatlar talim sifati samaradorligining dolzarb muammolaridan biri. Chunki bugungi kunda talaba (kursant)lar uchun mustaqil talim faqatgina qo'shimcha ishdek namoyon bo'lmoqda. Talaba(kursant) lar mustaqil ishlarni aksariyat holatlarda avvalgi mustaqil ishlardan ko'chirish, internet tarmog'idan mavzuga oid tayyor materiallarni nusxalash orqali amalga oshirmoqdalar. Eng qizig'i ayrim o'qituvchilar tomonidan o'quv qo'llanma hajmi, ko'rinishi, uning rejalashtirilishidan tortib xulosa qismigacha standartlashtirilishi holatlari ham mavjud.

Biz talabada ilg'or fikrlash san'atini shakllashtirishda ularning eng avvalo ijodiy izlanishga o'rgatish tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug'ullanishga zamin yaratish, nutqini rivojlantirish, ijod qilish salohiyatini yaxshilanishiga erishishimiz joizdir. Buning uchun oliy ta'limda o'quv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini quyidagi mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lar edi:

✓ Mustaqil ish mavzulari o'quv predmeti tayanch mavzularining bittasini yoki bir nechtasida yoritilgan malumotlar asosida yechimi bor muammolarga tayangan holda tuzilishi.

✓ Konkret bir yoki kichik-kichik bir nechta muammolar(kazus) ko'tarilishi, yechim yo'li profilaktikasi yoritilishi.

✓ Albatta tajriba, amaliy mashg'ulot yoki bevosita sinab ko'rishga asoslanishi.

✓ Xulosa qismida o'zi uchun o'zlashtirgan bilimni qisqa lo'nda bayon etilishi.

✓ Kichik ixtiro yoki kashfiyotlar, qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlashi (amaliyot va nazariya uyg'unlashuvi natijasida) kiritilishi kabi qator qiziqarli faoliyatlar, misollar, masalalar va boshqalar.

Talabalarga o'quv jarayonining amaliy, laborator va seminar mashg'ulotlarida turli kazuslar yechimi, o'quv-texnologik vazifalarni yuklanishi, muammoli materiallarni yechimini topish orqali uslubiy yangiliklar kiritilgan kichik mustaqil ishlarni belgilash bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Ta'lim berishning

innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuvini talabalarga erkin yoritish imkonini berish samaraliroq hisoblanadi.

Mustaqil ishlar konkret belgilangan standartlardan xoli bo'lishi, ularning mazmunan va usluban qolipga solinishi mustaqil izlanishlar asosida amalga oshishiga olib keladi. Talaba mustaqil ish bajarishi uchun eng avvalo tanlov asosida mavzuni o'zi tanlashi, albatta o'qituvchi tomonidan ishning borishi yuzasidan tavsiya va maslahatlar olishi lozim.

Mustaqil ish hajmi mavzuning oddiy va murakkabligidan kelib chiqishi, unga turli ilovalarni majburiy tarzda kiritilmasligi, yoritilish erkinligi, (talaba xohlasa ilmiy rasm, slaydsifatida tayyorlasin) muayyan laboratoriya, tajriba natijasiga tayanilishi lozim.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, kerakli adabiyotlarni qidirish shakllanmaganligi, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, ta'limdagi raqobatni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida raqobatni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarini iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Mustaqil talimning sirtqi bo'lim talabasi tomonidan amalga oshiriladigan qismi esa mutlaqo boshqa, yani mazkur faoliyat talabaning bilim olishi uchun asosiy manba hisoblanadi. E'tiborlisi shuki, ta'lim faoliyatimda kuzatishlar natijasida sirtqi ta'lim talabalari (tinglovchilari) kunduzgi ta'lim talabalari (kursantlar) ga qaraganda nazariy bilimlarni tez o'zlashtirilmogda. Buning sababi oddiy – bevosita amaliyotdan xabardorlik va ta'lim olishga, yangi bilimlar olishga qiziqish xissining ortishi hisoblanadi. Ular o'qish davomida asosiy e'tiborni konspektlashtirish hamda imtixonlardan o'tishga emas, balki, amaliyotdagi muommolarga nazariy yechim topish, huquqiy asoslarni o'rganish hamda qaysi normalar, bilimlar amaliyotda qo'llanilmayapti yoki sohaga oid bo'shliqlarni topib, ularga yechim topishga

qaratadilar. Shuning uchun ham ayrim jihatlardan OTM larda sirtqi ta'lim shaklidan ta'lim olayotgan talaba(tinglovchi)dan ayrim andozalarni kunduzgi ta'limga joriy etish kerak deb hisoblayman.

Xulosa o'rnida, talaba(kursant)lar ning psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar, dissertatsiya tadqiqotlarini tahlil qilishi, uning bilim darajasini sinash natijalari shuni ko'rsatmoqdadiki, mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun quyidagi vazifalarni oldinga qo'yish talab etiladi:

1. Mustaqil ishlarda talabalarga qiziqish va unga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish.
2. Talabalar mustaqil talim faoliyati bo'yicha ko'nikma va mahoratga ega bo'lishlariga erishish.
3. Talabalarda ilmiy izlanish, ilmiy maqolalar tanlovini o'tkazish hamda ijodiy yangiliklar yaratishga qiziqtirish.
4. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish uchun zaruriy uslubiy materiallarni ishlab chiqish.

Mustaqil ta'lim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirish darajasini oshiradi va bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy xususiyatlari sifatida mustaqilligini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. "Ta'lim to'g'risida"gi 23.09.2020 O'RQ-637-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"
6. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)